

“Yil talabasi” tanlovining institut bosqichi o‘tkazildi




Bugun O‘zDSMI da Oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida o‘tkazilayotgan “Yil talabasi” tanlovining institut bosqichi bo‘lib o‘tdi.





Unda fakultetlar kesimida g'olib chiqqan talabalar “Yilning o‘z mutaxassisligi bo‘yicha eng bilimdon talabasi”, “Yilning eng faol targ‘ibotchi talabasi”, “Yilning eng faol ixtirochi-innovator talabasi”, “Yilning eng faol sportchi talabasi”, “Yilning eng faol iqtidorli talabasi”, “Yilning eng faol ijodkor talabasi” hamda “Yilning eng faol tadbirkor talabasi” yo‘nalishlari bo‘yicha o‘zaro bellashdi.







Tanlovda institut rahbariyati tomonidan tegishli mutaxassislar tarkibiga ega tanlov komissiyasi tashkil etilib, talabalarning ijodiy ishlari, darslarda ishtiroki, faollik darajasi va yetakchilik qobiliyati baholandi hamda g'olib deb topilgan ishtirokchilarga tanlovning respublika bosqichida qatnashish uchun tavsiyanoma taqdim etildi.

